



THE POLITICAL AND ECONOMIC FOUNDATIONS OF THE RADICAL CHANGE IN THE DIPLOMATIC RELATIONS OF THE RUSSIAN EMPIRE WITH THE REGIONS OF CENTRAL ASIA IN THE 60S OF THE XIX CENTURY

Dilshod Z. Boratov

basic doctoral student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Russian Empire, Central Asia, political relations

Received: 06.08.24

Accepted: 08.08.24

Published: 10.08.24

Abstract: This article will reveal the physiological and economic foundations of the radical turn of the Russian Empire in relations with Central Asia, which took place precisely from the middle of the XIX century. In particular, it has been shown that there are also several external influences in combination with domestic needs such as owning a market with the purchasing power of industrial products that are developing in the country, meeting the demand for cotton raw materials that have arisen, expanding their territory at the expense of southern borders. In this regard, these include the defeat in the Crimean War, the inability to compete with the Western European powers, the need to have its own influence in Central Asia in order to gain an advantage over the Balkan issue.

XIX ASR 60-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING MARKAZIY OSIYO HUDUDLARI BILAN DIPLOMATIK ALOQALARIDA YUZ BERGAN TUB BURILISHNING SIYOSIY VA IQTISODIY ASOSLARI

Dilshod Z. Boratov

tayanch doktorant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Markaziy Osiyo, siyosiy aloqalar

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo bilan munosabatlarda aynan XIX asrning o'rtalaridan boshlab yuz bergan tub

burilishning sisyosiy va iqtisodiy asoslari ochib beriladi. Jumladan, mamlakatda rivojlanib borayotgan sanoat mahsulotlarini xarid qilish qobiliyatiga ega bozorga egalik qilish, vujudga kelgan paxta xomashyosiga bo'lgan talabni qondirish, o'z hududlarini janubiy chegaralar evaziga kengaytirish kabi ichki ehtiyojlar bilan birgalikda bir qancha tashqi ta'sirlar ham mavjudligi ko'rsatib o'tilgan. Bu jihatdan, Qrim urushidagi mag'lubiyat, G'arbiy Yevropa davlatlari bilan raqobatlasha olmaslik, Bolqon masalasida ustunlikka erishish uchun Markaziy Osiyoda o'z ta'siriga ega bo'lish zarurati shular jumlasidandir.

ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОРЕННОГО ИЗМЕНЕНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ С РЕГИОНАМИ СРЕДНЕЙ АЗИИ В 60-Е ГОДЫ XIX ВЕКА.

Дильшод З. Боратов

базовый докторант

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Российская империя, Средняя Азия, политические отношения.

Аннотация: В этой статье раскрываются политико-экономические основы коренного перелома в отношениях Российской империи с Центральной Азией, произошедшего именно с середины XIX века. В частности, было показано, что существует несколько внешних влияний в сочетании с внутренними потребностями, такими как владение рынком, способным закупать продукцию развивающейся промышленности в стране, удовлетворение возникающего спроса на хлопковое сырье, расширение своей территории за счет южных границ. В этом отношении к ним относятся поражение в Крымской войне, неспособность конкурировать с западноевропейскими государствами, необходимость иметь свое влияние в Центральной Азии для достижения превосходства в Балканском вопросе.

KIRISH

Qrim urushi Rossiya imperiyasining harbiy va iqtisodiy salohiyatining naqadar kuchsiz ekanligini ko'rsatib berdi. Endilikda mamlakatni oyoqqa turg'izish va uning Sharq va G'arbda o'z so'ziga ega davlat maqomiga erishishini taminlash hukmron tabaqa oldidagi asosiy masala sifatida

qarala boshlandi. Buning ustiga 1857-yilda ko'pchilik Yevropa davlatlarida iqtisodiy inqiroz holati yuz bergan edi. Bu jarayon Rossiya Imperiyasini ham chetlab o'tmadi. Xususan, mamlakatda ishlab chiqarish hajmi kamaydi, tashqi savdo 11 % ga qisqardi, mamlakatda birjaning kuchli inqiroz holati kuzatildi mazkur jarayonlar hukmron doira va savdo-ishlab chiqarish qatlamlarini xavotirga sola boshladi.[1]

Ushbu vaziyatdan chiqib ketish uchun imperator tomonidan rivojlangan g'arb davlatlarga turli mutaxassislar yuboriladi. 1857-yil oxirida shunday mutaxassislardan biri bo'lajak moliya vaziri M.X.Riytern Parijga tashrifi davomida o'z xulosalaridan iborat xatni Aleksandr II ga yuboradi. Ushbu xabarning asosiy mazmuni Rossiya iqtisodiyoti juda ham tushkun holatda qolib ketganligi, mamlakat iqtisodiyoti uchun hal qiluvchi to'g'ri yo'lni tanlash hukumatning o'z qo'lida ekanligi, agar mazkur fursatdan foydalanilmasa mamlakat yanana bir necha yillar shu holatda qolib keltishi kabi xabarlardan iborat edi.

ASOSIY QISM

XIX asrning 60-yillarida ruslarning mazkur hududdagi qiziqishlari har jihatdan ortib bordi. Bunga bir necha sabablar bor edi. Masalan, Yuzaga kelgan ingliz-rus raqobati. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish lozimki, Peterburg hukumati Hindistondagi qiyin vaziyatdan ushbu raqobatda foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- Kavkazdagi urushlarning tugashi. Ya'ni urushlar tugashi bilan hududdagi armiyadan ayrim qismlarni bo'shatish va boshqa hududlarga safarbar qilish imkoniyatining vujudga kelishi;

- Markaziy Osiyoga yaqinlashish va bu orqali hudud haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish;

- Rossiya imperiyasiga shu vaqtga qadar olib kelinayotgan paxta importidagi muammo va uni hal qilish ehtiyoji.[2]

Rossiya imperiyasi sanoat ishlab chiqarish va iqtisodiy hayoti paxta xomashyosiga bog'liqlik muhim jihat hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1804-yilda paxta xomashyosi asosida faoliyat olib boruvchi korxonalar soni 2400 tani tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatgich 1860-yilga kelib 15 000 tani tashkil etgan. Shuningdek bu jarayonning asosini ham kirib kelayotgan paxta xomashyosining ko'payishi bilan bog'lash o'rinli va ayrim statistik ma'lumotlar:

1841-1845-yillarda 527 ming pud;

1846-1850-yillarda 1 115 ming pud;

1851-1856-yillarda 1 533 ming pud;

1856-1860-yillarda 2 421 ming pud paxta xomashyosi imperiyaga import qilingan edi. Import qilinuvchi paxta xomashyosining asosiy qismi Amerika Qo'shma Shtatlaridan olib kelingan bo'lib, AQShda fuqarolar urushining boshlanishi bilan ko'rsatgichlar keskin o'zgaradi. 1861-1865-yillarda 1 116 ming pud paxta olib kelinganligi shu holatda ham G'arbiy Yevropaning

sanoatlashgan mamlakatlaridan ortda qolayotgan Rossiya imperiyasi iqtisodiyoti uchun kuchli zarba bo‘ladi. Yuzaga kelgan paxta xomashyosi muommosini hal qilishi mumkin bo‘lgan hudud bu Markaziy Osiyo hududi edi. Agarda avvalgi yillarda yetishtirilgan Markaziy Osiyo paxtasi uzun tolali Amerika, Misr va Hindiston paxtasi kabi sifatli bo‘lmasada lekin 60-yillar oxirida yangi Amerika navining ekila boshlashi Markaziy Osiyo paxtasi ham sanoat uchun sifat ko‘rsatgichini yaxshilaydi. Endilikda iqtisodiy hayotni tartibga solish uchun avvalo ichki va tashqi savdoni rivojlantirish, boy xomashyo manbalariga egalik qilish masalalari kun tartibida turar edi. Ayniqsa Qrim urushidagi mag‘lubiyat mazkur jarayonni bir qadar tezlashishiga sabab bo‘ldi.

Imperator va imperiya hukumati tomonidan faol tashqi diplomatiya orqali mazkur masala hal etilishi bunda Bolqon, Yaqin Sharq, Uzoq sharq va eng avvalo Markaziy Osiyo davlatlari bilan diplomatik aloqlarni kuchaytirish vazifalari belgilab olindi. Endilikda Rus hukumati tomonidan Yevropaning Rossiya uchun yopiqligi, agarda mazkur holat e‘tirof etilgan ekan Rossiya o‘zining janubiy va Janubiy-sharqiy qo‘shni davlatlari evaziga ko‘zlangan maqsadga erishish mumkinligi ta’kidlanadi.[3]

XIX asrning 50-yillariga kelib Imperiyaning iqtisodiy soha mutaxasislari ham o‘z tadqiqotlari markaziga aynan Osiyo davlati bilan o‘zaro savdo va diplomatik munosabatlarining ahamiyati mavzusini qo‘ya boshlashdi. Ulardan biri Rossiya imperiyasi Moliya vazirligi Konselyariyasi bosh direktori Y.A.Gagemeyster edi. U o‘zining 1857-yilda chop etilgan “Rossiya savdosi va ishlab chiqarishiga oid qarashlar” nomli maqolasida aynan imperiyaning sharq mamlakatlari bilan o‘zaro savdo iqtisodiy masalalarga oid qarashlarni yozadi.[4]

Masalan, Gagemeysterning fikricha, Osiyo bozorlari Yevropa bozorlariga nisbatan juda faol bo‘lib, Markaziy Osiyo Imperiya uchun juda katta foyda olib kelishi mumkin bo‘lgan hudud hisoblanadi. Shuningdek suv yo‘llari ham imperiya manfaatlariga juda mos bo‘lib, Sirdayoning yuqori oqimi orqali Toshkent va Qo‘qon shaharlariga qadar yetib olish mumkin edi. Yuqoridagi fikrlardan ham bilib olishimiz mumkinki, nafaqat Rossiya siyosiy elitasi yoki harbiy soha vakillari qolaversa Moliya sohasi vakillari ham aynan Markaziy Osiyo Imperiyaning kelajagi uchun juda ham kerakli hudud ekanligini e‘tirof etishgan.

Shuni ham e‘tirof etib o‘tish lozimki, Imperiya mazkur davrda Markaziy Osiyo davlatlari bilan nafaqat faol tashqi siyosat olib borish va o‘zaro tovar ayirlashboshlash, savdo munosabatlarini yanada rivojlantirish haqida balki, o‘zining agressiv tashqi siyosati uchun yetarli infrastrukturani hosil qilish haqida ham o‘ylay boshlagan edi. Jumladan, 1856-yil iyul oyida Kavkazdagi imperator noibi va Kavkaz armiyasi boshlig‘i hisoblangan A.I.Baryatinskiy imperatorga Ustyurt orqali Kaspiy dengizi qirg‘oqlaridan Orol dengiziga qadar cho‘zilgan temiryo‘l loyihasini taqdim etadi. Aslida ushbu lohiyaning taklif etilishi bazor mantiqqa tog‘ri kelmas edi. Chunki 1851-yildagina imperiyadagi ilk keng masshtabli temiryo‘l Moskva-Peterburg

temiryo'li (644 km) qurib tugatilgan edi. Shunga qaramasdan mazkur loyihining imperator tomonidan o'rganilishi Rossiya imperiyasi endilikda har qanday yo'l bilan bo'lsada Markaziy Osiyoga egalik qilishni istaganligini ko'rsatadi.

Yana bir jihat e'tiborliki, Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro munosabatlarning qaysi yo'ldan borishi va hukumatga taqdim etilayotgan lohiyalar masalasida aniq bir to'xtamga kelish ham imperator uchun qiyinchilik tug'dirgan. Masalan temiryo'l qurish lohiyasi ustida ham turli munozaralar uzoq davom etgan. Bu masalada Imperiya Harbiy vazirligi qattiq qarshilik ko'rsatadi. Vazirlikning fikricha juda katta qiyinchilik bilan qurilishni talab etuvchi ushbu temiryo'l imperiyaga Inglizlar Afg'oniston masalasidagi raqobatda umuman foydasi tegmas edi.

Mazkur jarayonlarning qisman yakunlanishi, Markaziy Osiyo va qo'shni sharq davlatlariga nisbatan amalga oshiriluvchi barcha o'rganish ishlari, ichki bozorlarni egallash va xomashyoga boy manbalarni tahlil etish vazifalari ham Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Osiyo departamenti zimmasiga yuklatilishi bilan bog'liq edi.[5] Bu jihatdan Osiyo departamenti imperiya tashqi ishlar vazirligi tarkibidagi 3 departamentdan biri hisoblanib, tarixan 1819-yil 19-apreldan boshlab qisman yuqorida keltirilgan vazifani bajarib kelayotgan bo'lsa ham ammo endilikda ushbu tashkilotning oldiga aniq maqsadlar ham qo'yilishi Osiyo departamenti faoliyatini yangi bosqichga olib chiqqan edi.

Osiyo departamentida Markaziy Osiyo masalasida yangi vazifalarni qabul qilishi bilan uning kadrlar tizimida katta o'zgarishlar yuz berdi. Chunki sharq davlatlari bilan imperiya o'rtasidagi o'zaro aloqalar davlat siyosatining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan edi. Jumladan, 1856-yil iyun oyida P.Kavalevskiy Osiyo departemnti direktori etib tayinlanadi. Ma'lumotiga ko'ra u Xarkov universitetining Filosofiya yo'nalishi bitiruvchisi hisoblanib, katta tajribaga ega kadr sifatida qaralgan. Shuningdek P.Kavalevskiy imperiyada olib borilayotgan tashqi siyosatni tushunganligi, shuningdek 1839-yilda Xiva xonligiga nisbatan tashkil etilgan Perovskiy ekspeditsiyasida faol qatnashganligi uchun ham Osiyo davlatlari bilan aloqalarning yuritilishi unga ishonib topshirilgan edi. Bundan xulosa qilish mumkinki, Imperiya Markaziy Osiyo davlatlari masalasiga alohida e'tibor bergan, masalan, asosiy yo'nalishlar, Tashqi siyosat subyektlari va qolaversa kadrlar masalasi ham qayta ko'rib chiqilgan.

Imperiya tashqi siyosatining muhim masalasi Osiyo davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo ekanligi uchun mazkur masala bilan- imperator oilasi vakillari, knyazlar, muhim davlat tashkiloti rahbarlari, masalan, harbiy dengiz floti vaziri General-Admiral Konstantin Nikolayevich shug'ullanishgan. 1861-yildan keyin Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo masalasidagi qiziqishlari yanada ortib bordi. Chunki, shu yili imperiyaning ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir qilib kelgan krepostnoylik huquqi bekor qilinishi bilan iqtisodiy hayot yanada jadal rivojlana boshlagan edi. Bu esa tabiiyki, yangi xomashyo manbalari va tovarlar uchun bozorlarni talab qilgan

edi. Buning natijasida muhim davlat organlari hisoblangan Harbiy vazirlik va Tashqi Ishlar vazirligi ham Markaziy Osiyoni imperiya manfaatlari mos keluvchi hududga aylantirish bilan shugʻullana boshladilar.

Bu jarayonlardan kelib chiqqan holda Osiyo Demartamenti direktori Markaziy Osiyo davlatlari bilan diplomatik aloqalarda asosan quyidagi maqsadlarga erishishni asosiy vazifa sifatida belgilab olgan edi:

- Sirdaryoning yuqori oqimini egallash va bu orqali rus kemalarining Buxoro va Qoʻqon xonligi hududiga erkin suzishiga erishish shuningdek, rus tovarlarining Markaziy Osiyo bozorlariga kirib borishini ham kengaytirishga yoʻl ochish;

- Amudaryoni egallash orqali Xiva xonligi bilan oʻzaro savdo aloqlarini yangi bosqichga olib chiqish, qolaversa Kaspiy dengizining sharqiy qirgʻoqlarida yashovchi koʻchmanchi turkman qabilalarining Rossiya-Xiva munosabatlaridagi salbiy taʼsirni kamayishi erishish;

- Sirdaryo va Qirgʻiz–Sibir liniyasidagi bir necha fortlarni oʻzaro bogʻlash va ushbu liniyaga hozirda Orenburg va Sibir liniyalarida joylashgan bojxona punktlarini joylashtirish;

- Markaziy Osiyo davlatlariga imkon qadar koʻproq savdo konsullarini yuborish orqali ikki tomon oʻrtasidagi savdo va diplomatik aloqalarni yanada rivojlantirish;

Bu kabi maqsadlarni amalga oshirishning bosh omili albatta faol elchilik aloqalarining yoʻlga qoʻyilganligi bilan bogʻliq edi.

XULOSA

Markaziy Osiyodagi Imperiyaning siyosatiga bevosita taʼsir qilgan jihatlardan yana biri bu rus-ingliz raqobatining mazkur hudud masalasidagi jihati edi. Bu jarayon avvalo XIX asrning boshlarida yaqqol nomoyon boʻla boshlagan. Jumladan inglizlar dastlab oʻzlarining Markaziy Osiyo masalasidagi tayanchini shakllantirish uchun Kaspiy dengizining janubida mustahkamlanishga harakat qilishgan. Masalan, 1810-yilda Gruziya hududidagi rus armiyasi qoʻmondoni Tormasov Peterburgga xat yoʻllab, inglizlar oʻz kemalarini qurish uchun Eron shohidan Kaspiy dengizining janubiy sohillariga tutash boʻlgan, Enzeli va Astrabod hududlarini talab qilishganliklari haqida imperatorni ogohlantiradi. Bundan xulosa qilish mumkinki, Markaziy Osiyodagi Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasi oʻrtasidagi raqobat Kaspiyboʻyi hududlaridan boshlangan edi.

XIX asrning 50-yillariga kelib inglizlarning Kaspiy hududlari uchun qiziqishlari yanada kuchayib bordi. Bu holat ayniqsa, tashqi ishlar boʻyicha stat sekretar, Reshte va Enzeli hududlarida Britaniya konsuli vazifasini bajargan Mekkenzi faoliyatida yaqqol koʻzga tashlangan edi. Mazkur ingliz amaldori oʻzining bosh maqsadi “Resht-Enzeliy porti”ni egallash deb hisoblagan. U oʻzining ushbu masaladagi fikri haqida toʻxtalib, ushbu portga egalik qilish bu Kaspiyga egalik qilish va Kaspiy orqali esa butun Markaziy Osiyo savdosiga egalik qilish mumkin deb hisoblagan.

Mekenzining ushbu qarashlari Rossiya imperiyasini xavotirlanishiga sabab bo'lgan bo'lsa, keyinchalik 1859-yil yozida uning ushbu qarashlari "Times" gazetasida nashrdan chiqishi bilan Rossiyaning Inglizlar bilan Markaziy Osiyodagi raqobati yanada kuchaya boshladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мендельсон Л.А. Экономические кризисы и циклы XIX века.-М.: Политиздат, 1949. - С. 353-356
2. Аникеева А.А.Роль Ю.А. Гагемейстера в развитии отечественной финансовой мысли// Финансы и кредит. 2009. № 29. – С. 4
3. Халфин Н.А. Политика России в Средней Азии(1857-1868).-М.: Издательство восточной литературы, 1960. - С. 92
4. Айрапетов О. Внешняя политика Российской империи 1801-19014. – М.: Европа, 2006. – С.289
5. Туркестан в имперской политике России: Монография в документах / отв. ред. Т. В. Котюкова. — М.: Кучково поле, 2016. -442 с.
6. Ураков Д. Ж. Туркистон генерал-губернаторлигининг кўшни давлатлар билан сиёсий ва иқтисодий алоқалари. - Т., 2021. -216 б.
7. Галкин М. Краткая записка об исторических правах России на Кокандские города Туркестан и Ташкент. // Туркестанский сборник. -Т.: 1921. -257-258 с.
8. Динашева Л.З., Абдурахмонова Н.Ш. Из истории соперничества России и Англии за среднюю Азию(конец XIX- начало XX)//Universum: общественные науки. 2015. №4/14. - 11 с.
9. Моисеев С.В. Причины и последствия заключения русско-кашгарского торгового договора 1872 года //Известия АлтГУ. Исторические науки и археология. 2019. № 6. -75-80 с